

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

*Ko'lyozma huquqida
UDK: 336.51(575.1)*

XASANOV BOBURJON RAVSHAN O'G'LI

**BANKLAR FAOLIYATIDA RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISHNI
OPTIMALLASHTIRISH**

5A230701 – Bank ishi (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan**

D I S S E R T A T S I Y A

Ilmiy rahbar: i.f.n. Nasriddinov F.N.


TOSHKENT – 2019

Ushbu dissertatsiyada “*bank risklarini* boshqarish tizimi”ga nisbatan yangi mazmundagi mualliflik ta’rifi ishlab chiqilgan; respublika banklarida bank kapitali etarliligiga nisbatan minimal talablarni ishlab chiqishda bozor va operatsion riskni hisobga olish zarurati asoslab berilgan; respublikamiz banklari faoliyatidagi risklarning rivojlanish tendentsiyalari aniqlangan va baholangan; bank risklarini boshqarishning korporativ tuzilmasini takomillashtirish bo’yicha takliflar ishlab chiqilgan; respublikamiz tijorat banklarida risk-menejment tizimini takomillashtirishning ustuvor yo’nalishlari asoslab berilgan.

In this dissertation author's new definition to “bank risks management system” is developed; necessity of taking into account of market and operational risks in working out of minimal requirements concerning of the banking capital adequacy in banks is proved; development tendencies of risks in activity of banks of Republic are determined and evaluated; offers on improving of corporate structure of bank risks management are developed; priority directions of improving risk-management system in commercial banks of Republic are proved.


Magistrlik dissertatsiya ishi “Bank ishi” kafedrasida dastlabki himoyadan o’tgan. 12 - sonli bayonnoma « 12 » oktab 2019 y.

Ilmiy rahbar: i.f.n. F.Nasriddinov


imzo

_____ sana

Magistr: B.Xasanov


imzo

_____ sana

“Himoyaga tavsiya etiladi”

“Bank ishi” kafedrasi mudiri

dots. U.Duskobilov

“ 30 ” may 2019 yil

Himoya 2019 yil “27” oktab soat 14⁰⁰ da Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bo’lib o’tadi.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I-BOB. BANK RISKLARINI BOSHQARISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI.....	9
1.1. Bank faoliyatida risk tushunchasi va uning mohiyati.	9
1.2. Bank risklarining turlari va boshqarish usullari.	17
1.3. Tijorat banklarida risklarni boshqarishning iqtisodiy-huquqiy asoslari.	29
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	39
II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISH AMALIYOTI	42
2.1. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida risklarni boshqarishning amaldagi holati tahlili.....	42
2.2. Bank faoliyatida risklarni baholash va boshqarish bo'yicha xalqaro talablar va ularni O'zbekistonda qo'llash shart-sharoitlari.....	48
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar	54
III-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI SAMARALI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	55
3.1. Banklar faoliyatida risklarni samarali boshqarish tizimini takomillashtirishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.	55
3.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarida risklarni boshqarish tizimini samarali tashkil etish va takomillashtirish yo'llari.	64
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar	69
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	71
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	74

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mamlakat iqtisodiyotning muhim bo'g'inlaridan hisoblangan bank tizimi yoki alohida olingan tijorat banklarining samarali faoliyat ko'rsatishi iqtisodiyotimizni yanada taraqqiy ettirish va pul resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunga qaramay, global moliyaviy inqiroz ko'rsatishicha, yuqori daromad ilinjida keragidan ortiq riskni o'z zimmasiga olish, spekulyativ amaliyotlardan keng foydalanish nafaqat alohida bank, balki butun bank tizimi barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bank faoliyati doimo risklar bilan bog'liq ekan, risklarni to'g'ri baholay olish, ularni sug'urtalash vositalaridan foydalanishni optimallashtirish, umuman olganda, risklarni boshqarish tizimini Markaziy bankning zamonaviy talablari asosida shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi.

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida bank nazorati bo'yicha Bazel qo'mitasining talablariga asosan, tijorat banklarining mablag'lari etarliligi va likvidliligi darajasi ko'rsatkichini qo'llab-quvvatlash, boshqaruv va bank tavakkalchiligi tizimi, shu jumladan, ilg'or xorijiy amaliyotlari asosida tijorat banklarida menejment tavakkalchiligi samaradorligini yanada oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 sentyabrdagi "Respublika bank tizimini yanada rivojlantirish va barqarorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 3270-sonli Qaroriga muvofiq, banklarda risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish borasida qator ustuvor yo'nalishlar, xususan, tijorat banklarining korporativ boshqaruvi tarkibida bank Kengashiga bevosita bo'ysunuvchi "Risklarni nazorat qilish" qo'mitasini majburiy tarzda

¹ http://www.lex.uz/pages/getpage.aspx?lact_id=3107036 - 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi